

## “QULOQ QILISH” SIYOSATI VA “QULOQLAR SURGUNI” MUAMMOSINING YORITILISHI

Andijon davlat pedagogika instituti 2- kurs magistranti

Turg'unov Shaxzodbek Muhammadjon o'gli

Tel .+998888350066

[shayxzodbek7766@gmail.com](mailto:shayxzodbek7766@gmail.com)

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada “Quloq qilish” siyosati va “Quloqlar Surguni” muammosining yoritilishi, Kollektivlashtirishda norozilik bildirganlar, mol-mulkini kolxozga topshirilishni istamagan xo’jalik boshliqlari “aksilinqilobiy faol quloqlar” sifatida ta’qibga olinganligi, tashkil etilgan jamoa xo’jaliklarini yakka dehqon xo’jaliklaridan ustun qilib ko’rsatish, Yoppasiga jamoalashtirish bu boy va o’rtahol dehqonlarga tegishli ishlab chiqarish vositalari, mollar, uy-joy, qishloq xo’jalik mahsulotlari va urug` zaxiralarini tortib olish haqida ma’lumotlar berilgan.

**KALIT SO’ZLAR:** Quloq, Kollektivlashtirish, MTSlar, Sovet, VKP.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье освещаются политика «Подслушивания» и проблема «Ссылки Ушей», преследуются как «контр-революционно-активные уши», организованные колхозы были уничтожены единоличниками. Приводятся сведения об изъятии средств производства, товаров, жилья, сельскохозяйственной продукции и семенных запасов, принадлежавших зажиточным и средним крестьянам.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Кулак, Коллективизация, МТС, Совет, ВКП.

**ABSTRACT:** In this article, the policy of "Eavesdropping" and the problem of "Exile of Ears" are highlighted, those who protested collectivization, farm heads who did not want to hand over their property to the collective farm were persecuted as "counter-revolutionary active ears", the organized collective farms were destroyed by individual farmers. information is given about the taking away of means of production, goods, housing, agricultural products and seed reserves belonging to rich and middle-class peasants.

**KEY WORDS:** Kulak, Collectivization, MTS, Soviet, VKP.

### KIRISH.

Ma’lumki, sovet hukumatining qishloq xo’jaligini yoppasiga kollektivlashtirish va “quloqlar sinf sifatida tugatish” siyosati boshlang’ich davrdanoq zo’ravonlik bilan amalga oshirila boshlagan. Kollektivlashtirish harakati

bolsheviklar hukumatiga xos bo'lgan "inqilobiy" shiddat bilan, xalq ommasiga nisbatan zo'rlik va qatag'on usullarini keng qo'llagan holda o'tkazila boshlandi.

O'zbekistonda sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va quloqlashtirish siyosati boshlang'ichidan qishloq aholisiga nisbatan zo'ravonlik qilish vositasida olib borildi. Dehqonlarni kolxozlarga majburan kiritish uchun ularga nisbatan zo'rlik ishlatildi va qatag'onlarning turli vositalari ishga solindi.

Kollektivlashtirishda norozilik bildirganlar, mol-mulkini kolxozga topshirilishni istamagan xo'jalik boshliqlari "aksilinqilobiy faol quloqlar" sifatida ta'qibga olindi. Jazo organlari tomonidan qo'lga olingan bunday kishilarning aksariyati sudsiz, tergovsiz otib tashlandi. Qolgan qismi esa uzoq muddatga qamoqqa tashlandi. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Mustabid tuzum davrida minglab begunoh vatandoshlarimizni umri xazon bo'lgan. 1937-53 yillarda O'zbekistonda 100 ming odam qatag'onga uchragan. Ularning 13 ming nafari shafqatsiz otib tashlangan. Qanchadan-qancha oilalar xonavayron bo'ldi, bolalar yetim qolgan. Birgina 1937-38-yillardagi katta qatag'on davrida 7 mingga yaqin vatandoshimiz otilgan"ligi so'zimizning yaqqol isbotidir.<sup>1</sup>

Qishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish boshlanishidan to 1954-yilga qadar GULAG tizimidagi lagerlar aholisining ko'pchiligini ayni "quloqlar" tashkil qilgan.

### **ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA.**

Taniqli olim R.X.Aminova O'zbekistonda amalga oshirilgan jamoalashtirish siyosati bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib bordi. Uning tadqiqotlarida jamoalashtirish davrida qatag'on qilingan dehqonlar taqdiri haqida ham ma'lumotlar umumlashtiriladi. M.G.Abdullayevning nomzodlik dissertatsiyasi esa O'zbekistonda sovetlarning quloq qilish siyosati va uning fojeali oqibatlariga bag'ishlanadi. Shuningdek, sovet davlatining quloqlashtirish, surgun siyosati moskvalik olimlar tomonidan ham o'rganildi. Masalan, V.N.Zemskov o'z asarida sobiq sovet davlatida qatag'on qilinganlar haqida umumiy ma'lumot beradi.

Sovet hukumati qishloq xo'jaligini jamoalashtirish maqsadida bir qancha tadbirlar ko'rdi. Yangi tashkil etilgan jamoa xo'jaliklarini yakka dehqon xo'jaliklaridan ustun qilib ko'rsatish maqsadida ularni kuchli texnika bilan ta'minlash uchun MTS MOSlar tuzildi. Asl maqsad esa MTSlarni ommaviy jamoalashtirish siyosatini amalga oshirish quroliga aylantirish bo'ldi. Stalinning taklifi bilan VKP(b) MK va MNKning 1933 yil yanvarida bo'lib o'tgan qo'shma

<sup>1</sup> tps: \\ www.xabar.uz \\ uz\\jamiyat\\shavkat-mirziyoyev-qatag'on-qurbonlari-haqida

plenumida kolxoz qurilishini mustahkamlash uchun MTSlar qoshida siyosiy bo'limlar tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi. MTSlarning siyosiy bo'limlari Moskva rahbariyatining yo'lini amalga oshira borib, keng miqyosda jazolash harakatlarini avj oldirdilar. Ular faoliyatining faqat birinchi yilidayoq kolxozlar 7700 "zararli" kishidan "tozalandi". Hujjatlardagi ma'lumotlarga qaraganda, 1930-1933-yillarda kolxozlarga, o'sha vaqtda aytilishicha "suqilib kirib olgan" quloqlar va "yot unsurlar" dan 30 mingdan ortiq kishi haydab chiqarilgan. Ulardan aksariyati bir qolipda "Jamoalashtirishga qarshi faol chiqishlari uchun" degan ayblov bo'yicha qatag'on qilindi.

O'rta Osiyo respublikalarida amalga oshirilgan qatag'onlashtirish siyosati mavzusi ayniqsa R.Shamsutdinov asarlarida mukammal tadqiq etiladi. 2005- yil

N.G'.Karimov mas'ul muharrirligida "Репрессия: 1937-1938 год. Документ и материал" kitobi nashr etildi<sup>2</sup>. Bu kitobda R.Shamsutdinov, E.Yusupov, A.Mamajonov, E.P.Do'smatov va boshqalar tomonidan to'plangan hujjatlar e'lon qilinadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixi bo'yicha nashr etilgan kitoblarda ham sovet davlatining qatag'on siyosati tahlil etiladi<sup>2</sup>. Qatag'onlik siyosati bo'yicha V.P.Gentshkening ham maqolalari e'lon qilindi.<sup>3</sup>

### **NATIJA VA MUHOKAMA.**

Tariximizning ayanchli, hasratli, fojeali sahifalaridan biri Sovetlarning O'zbekistonda olib borgan qatag'on siyosati va uning fojeali oqibatlaridir. 1929-yil tarixga qora belgi ostidagi "buyuk burulish yili" deb nom olgan yil bo'lib kirib keldi. Bu dehqonlar sinfini ijtimoiy qatlam va mehnatkash omma sifatida maqsadli yo`q qilishning boshlang'ich davri edi. Bunda "quloqlar" va "boylar" toifasiga asosan yangi iqtisodiy siyosat sharoitida o`z xo`jaliklarini oyoqqa turg`azib olgan o`rtahol dehqonlar kiritildi. Chunki birmuncha badavlatroq qatlamlar oldingi yillarda tugatilgan edi.

1929-yilning yozida "quloqlar "ni jamoa xo`jaliklariga (kolxoz) kiritilishini ta`qiqlovchi qaror qabul qilinadi. O'sha yilning 7-noyabrida "xalqlar otasi" Stalinning matbuotda bosilib chiqqan "Buyuk burulish yili" nomli maqolasi hamda 27-dekabrda qishloq xo`jalik xodimlarining ilmiy konferensiyasida so`zlagan nutqi quloqlarni sinf sifatida tugatish va jadal jamoalashtirish siyosatini boshlab berdi.

Yoppasiga jamoalashtirish bu boy va o`rtahol dehqonlarga tegishli ishlab chiqarish vositalari, mollar, uy-joy, qishloq xo`jalik mahsulotlari va urug`

<sup>2</sup> O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T., Sharq, 2000.

Karatelnorepressivnaya politika totalitarnogo rejima v Uzbekistane (20-e-80-e god XX veka) T., 2002;

<sup>3</sup> Gentshke V.P. Iz istorii polskoy diaspor//O'zbekiston tarixi. 2001, №11; O'sha muallif. Deportatsiya narodov v period sovetского totalitarizma-gumanitarnaya katastrofa dlya obshestva// Vestnik UzMU. 2000; №4 va boshqalar.

zaxiralarini tortib olish hisobiga kolxozlar tuzish degani edi. Ommaviy jamoalashtirish g'oyasi, umuman olganda, "Lenincha kooperativ reja" da o'z ifodasini topgan bo'lib unda dehqonlarni bosqichma - bosqich kooperatsiyalash yo'li taklif qilingan edi, u dehqonlarning eng oddiy shakllar orqali yuqori va murakkab shakl bo'lgan jamoa xo'jaliklariga birlashuvini nazarda tutardi.

Qishloq aholisining badavlat qatlamlariga qarshi mislsiz quvg'inlar uyushtirildi, qishloqda aholini zo'rlik bilan kolxozlarga kiritish boshlandi. Agrar siyosatdagi yangi yo'l O'zbekistonda og'ir oqibatlarni keltirib chiqardi. VKP (b) MQ ning 1930-yil 5-yanvardagi "Jamoalashtirish sur'atlari va davlatning kolxoz qurilishiga yordam ko'rsatish choralari to'g'risida" gi qarorining dastlabki taxirida O'zbekiston SSSR hududida jamoalashtirishni ikkinchi besh yillik mobaynida tugallash mo'ljallangan bo'lishiga qaramay, bu harakat ertaroq tugallanishi mumkin degan fikrni o'rta tashladi. Shuni ham aytib o'tish joizki, respublikamizning ayrim rahbarlari (xususan, F.Xo'jayev va A. Akromov) valyuntaristik usullarga qarshi turishga intildilar va raqamlarga va muddatiga tuzatish kiritish fikrini bildirdilar. Biroq ularning takliflariga umuman e'tabor berilmagan. Natijada VKP (b) MQ O'rta Osiyo byurosining qarori bilan 1932-yilning boshlariga kelib dehqon xo'jaliklarining 68% ni kolxozlarga birlashtirish rejasi qabul qilindi. Jamoalashtirishni sun'iy tezlashtirish va bu borada "sotsialistik musobaqa" ning kim o'zdi "poygasini" avj oldirishda VKP (b)MQ ning 1930-yil 5-yanvardagi "Jamoalashtirish sur'ati va kolxoz qurilishida davlat yordami berish tadbirlari to'g'risida" gi qarori hal qiluvchi o'rin tutdi.

Mazkur qarorda sobiq SSSR hududi uch guruh rayonlarga bo'lindi va qaysi hudud qachon jamoalashtirishni tugallashi rejalashtirildi va u jamoalashtirishni 1933-yil bahorida tugallashi kerak edi. Yoppasiga jamoalashtirishga rahbarlik qilish uchun respublika va viloyat shtablari tuzildi. Hamma joyda ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari harakatga keltirildi. Qishloq aholisini kolxozlarga "g'ayratlantirish" uchun ishchilar sinfi ham jalb qilindi. VKP (b) MQ 1929-yil noyabr plenumi qarori bilan "yakka xo'jalik" qishloqlariga kamida 25 ming ishchini yuborish taklif etildi, ular joylarda "agrar inqilobni avj oldirishni ta'minlashlari" lozim edi. Xususan, O'zbekistonga Rossiyaning markaziy rayonlaridan 437 ishchi yuborildi.

Ular bilan birgalikda mahalliy ishchilar sinfi o'z saflaridan 263 kishini jalb qildi.

Yoppasiga jamoalashtirish va quloqlarni sinf sifatida tugatishni mislsiz avj oldirish qishloq kambag'al-batraklar qatlami faolligining nihoyatda yuksalishiga olib kelishi mumkin deb hisoblab O'rta Osiyo byurosi mahalliy partiya tashkilotlariga

bundan foydalanib qishloqdagi kambag'al-batraklarning eng yaxshi vakillarini partiyaga yollashni maslahat beradi. Ayollar ommasini ham bu ishga keng miqyosda jalb etish qarorda ko`rsatildi.

### **XULOSA.**

Bu buzulish jarayonlarining ta`siri xali-hanuz barham topgan emas. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, bozor agrar islohotlarining zamonaviy tajribasida sovet o'tmishidan meros bo'lib qolgan jiddiy to'siq har qadamda uchrayotgan rasmiyatchilik, ko'zbo'yamachlik, ishimizga yuzaki qarashdir.

Bu zararli illatlarning ildizi zo`ravonlik bilan amalga oshirilgan jamoalashtirishda yashiringan edi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1. Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi. T., «Cho'lpon», 1995
2. Usmonov Q, Abduq'aniyev A. va b. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. T., «O'qituvchi», 1996.
3. Niyozova F. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishning salbiy oqibatlari . // «O'zbekiston tarixi», 1999 y., № 4
4. .O'zbekiston tarixi. Masul muharrir Murtazayeva R. Oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent: 2015
5. Abdullaev M. O'zbekistonda sovetlarning «quloq» qilish siyosati va uning fojeali oqibatlari (1939-1945 yillar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2002
6. Алимова Д.А., Голованов А.А. Узбекистан мустабид совет тузуми даврида: сиёсий ва мафкуравий тайзик окибатлари.-Т.:Ўзбекистон,2000-50-б.